

### Tarif haqida ma'lumot

\* Texnik cheklanma – oyiga 45 000 daqiqa.

\*\* “Maqsad 50 PO” tarif rejasida ulanishdan keyingi birinchi oyda abonent to'lovi – 45 000 so'm.

\*\*\* “Maqsad Max PO” tarif rejasida qo'shimcha resurslar uchun oylik internet-trafik – to'liq tezlikda 2 TB. To'liq tezlikda taqdim etilgan limit tugaganidan so'ng, internet tezligi pasayadi va 64 kb/soniyagacha qilib o'rnatiladi.

- Yangi ulanishlar hamda Postpaid tizimidagi mavjud tarif rejalariga o'tishlar uchun amal qiladi.
- Tarifni “Maqsad Lite PO”, “Maqsad 50 PO”, “Maqsad Pro PO” va “Maqsad Max PO” tarif rejalaridan Postpaid tizimidagi mavjud tarif rejalariga almashtirish narxi – 0 UZS.
- Jismoniy shaxslar uchun “Maqsad Lite PO”, “Maqsad 50 PO”, “Maqsad Pro PO” va “Maqsad Max PO” tarif rejalaridan ochiq korporativ tarif rejalariga o'tish \*929# USSD-buyrug'ini terish yo'li bilan amalga oshiriladi.
- “Maqsad PO” tizimi ichida tarif almashtirishda hamda boshqa ochiq korporativ tarif rejalariga “Maqsad PO” tariflar tizimidan o'tishda oldingi tarif bo'yicha limitlar qoldig'i saqlanadi va yangi tarif limitlariga qo'shiladi.
- Ochiq korporativ tarif rejalaridan “Maqsad Lite PO”, “Maqsad 50 PO”, “Maqsad Pro PO” va “Maqsad Max PO” tarif rejalariga o'tish imkonsiz.
- “Maqsad PO” tizimi tarif rejalar bo'yicha oylik limitlar sarflab tugatilsa, qo'ng'iroqlar va SMSlar tarif rejasi shartlariga ko'ra limitdan tashqari yo'nalishlar qiymatiga muvofiq narxlanadi.

### 5Gning batafsil shartlari

#### 5G tarmog'idagi qo'shimcha internet-trafik hajmining shartlari:

- Tarif rejasi doirasida berilgan 5G tarmog'idagi internet-trafik hajmi 5G tarmog'ida amal qiladi va sarflanadi hamda sarflanish tartibiga ko'ra eng yuqori ustuvorlikka ega.
- 5G hajmi to'liq sarflab tugatilsa, internet tarif rejasining amaldagi shartlariga muvofiq narxlanadi.
- Internet-trafik shartlari roumingdagi abonentlarga tatbiq etilmaydi.
- Tarif rejasi va qo'shimcha internet-to'plamlar bo'yicha barcha yo'nalishlarga berilgan oylik internet-trafik limiti to'liq sarflab tugatilganida internetga kirish imkoni to'xtatiladi. Bunda, faqat internetdagi so'rovlar katta hajmdagi ma'lumot almashishni hamda internetning yuqori tezligini talab qilgan hollardagina 5G tarmog'idagi internet-trafik hajmidan 5G tarmog'ida foydalanish mumkin bo'ladi va sarflanadi.
- Smartfonning yoki boshqa qurilmalarning ulanish nuqtasi orqali internetni tarqatishda, faqat internetdagi so'rovlar katta hajmdagi ma'lumot almashishni hamda internetning yuqori tezligini talab qilgan hollardagina, berilgan 5G internet hajmidan foydalanish mumkin bo'ladi.
- Proksi-serverlar yoki VPN orqali ulanishda, internet-trafik berilgan 5G hajmi doirasida sarflanmaydi.

#### 5G xizmatining shartlari:

- Xizmat bepul taqdim etiladi.
- Xizmatni quyidagi holatlarda faollashtirish mumkin: “active”, “idle”.
- Qo'shimcha 5G internet-trafik hajmi taqdim etilishi munosabati bilan, 5G xizmati “Maqsad 50 PO”, “Maqsad Pro PO” va “Maqsad Max PO” tariflarida avtomatik tarzda taqdim qilinadi.

#### Eslatma:

1 - 5G tarmog'ida ovoz uzatish va USSD-so'rovlar amal qiladi (bunda tarmoq rejimi 3G/2G standartiga yoki VoLTE xizmati faol bo'lsa – 4G standartiga o'tadi);

2 - 5G tarmog'ining amal qilishi ko'plab omillarga bog'liq. Shu jumladan, mobil qurilmaning ishlab chiqaruvchi tomonidan o'rnatilgan dasturiy ta'minotiga. Shuni inobatga olishingizni so'raymizki, ayrim mobil qurilma ishlab chiqaruvchilar 5G tarmog'idan foydalanishni dasturiy ta'minot darajasida vaqtincha cheklashmoqda, chunki tarmoq qamrovi kamligi tufayli 5G tarmog'idan foydalanishda qiyinchiliklarga yo'l qo'ymaslik kerak.

#### Muhim!

Standart holatga ko'ra, 5G tarmog'idagi qurilmalar avtomatik tarzda yanada barqaror bo'lgan 4G LTE tarmog'iga qaytishi mumkin.

Masalan, quyidagi vaziyatlarda shunaqa bo'lishi mumkin:

- internetdagi so'rovlar katta hajmdagi ma'lumot almashishni hamda internetning yuqori tezligini talab qilmasa;
- foydalanuvchi 5G tarmog'ining qamrov hududini tark etsa yoki signal sifati barqaror ishlash uchun yetarli bo'lmay qolsa;
- 5G rejimida qurilmalar dastlabki bog'lanish va boshqarishni yo'lga qo'yish (signallashtirish) uchun 4G LTE tarmog'idan foydalanadi, keyin esa ma'lumot almashish uchun 5G tarmog'iga o'tadi.

Bunda smartfonda 5G tarmog'ining belgichasi aks etib turishi mumkin.

Bunday holatlarda, 5G NSA texnologiyasi xususiyatlaridan kelib chiqib, internet-trafik sarfi to'g'ri deb hisoblanadi va Kompaniya tomonidan korrektilovkalash amalga oshirilmaydi.

#### Tarif rejasi shartlariga ko'ra limitdan tashqari yo'nalishlar qiymati

##### Yo'nalishlar bo'yicha narxlash:

Tarmoq ichidagi va tarmoqdan tashqari qo'ng'iroqlar uchun chiquvchi daqiqa narxi (berilgan limitdan tashqari)	100 so'm
1 MB internet narxi	100 so'm
O'zbekiston bo'yicha chiquvchi SMS narxi (berilgan limitdan tashqari)	100 so'm
Xalqaro SMSlar	1 500 so'm

#### Limitlar qoldiqlarini tekshirish

Hisobni tekshirish: \*100#

Daqiqalar va SMSlarni tekshirish: \*102#

Internet-trafikni tekshirish: \*103#

#### Qo'shimcha ma'lumot

1. Oylik abonent to'lovining yechilishi va limitlarning belgilanishi:

- "Maqsad PO" tizimi tarif rejalarida abonent to'lovi har taqvimiy oyning 1-sanasida yechiladi.
- "Maqsad Lite PO", "Maqsad 50 PO", "Maqsad Pro PO" va "Maqsad Max PO" tarif rejalariga oy davomida ulangan taqdirda, abonent to'lovi va limitlar taqvimiy oyning oxirigacha hisoblab, ya'ni oy oxiriga qadar qolgan kunlar soniga mos ravishda yechiladi va belgilanadi. Ushbu shart yangi ulanishlarda va moliyaviy blokdan chiqishda qo'llaniladi.
- Tarif doirasida taqdim etilgan qo'ng'iroqlar uchun daqiqalar va internet taqvimiy oyning oxirigacha amal qiladi va yangi davrda ulardan foydalanib bo'lmaydi.
- Mijoz raqami Faol holatda bo'lsa, ammo hisobidagi pul mablag'lari oylik abonent to'lovidan kam bo'lsa, u holda tarif rejasidagi abonent to'lovi to'liq hajmda yechiladi va limitlar to'liq hajmda belgilanadi. Bunda, limitlardan raqam Faol holatga o'tganidan so'ng foydalanish mumkin bo'ladi.
- Mijoz raqami nafaol / manfiy balansli holatda bo'lsa, u holda abonent to'lovi yechilmaydi va tarif bo'yicha limitlar belgilanmaydi. Raqam Faol holatga o'tishi bilan darhol tarif rejasi bo'yicha abonent to'lovi yechiladi. Abonent to'lovining yechilishi hamda limitlarning belgilanishi taqvimiy oyning oxirigacha qolgan kunlar soniga mos holda amalga oshiriladi.
- Tarif rejasi bo'yicha taqdim etilgan internet-trafik limiti sarflanib bo'lganidan so'ng, abonent qo'shimcha internet-to'plamlarga ulanishi mumkin.

2. Bloklanish shartlari:

- Agar Mijoz "Vaqtinchalik bloklash" xizmatini faollashtirsa (masalan, SIM-kartani yo'qotib qo'yganida), abonent to'lovi yechilmaydi. Raqam bloklangan oyning o'zida Faol holatga o'tilsa, abonent to'lovi yechilmaydi. Raqam keyingi oylarda blokdan chiqarilsa, abonent to'lovi joriy oyning oxirigacha qolgan kunlar uchungina yechiladi va limitlar shunga mos miqdorda joriy oyning oxirigacha belgilanadi.
- "Raqamni saqlab qolish" xizmati faollashtirilganida tarif bo'yicha abonent to'lovi yechilmaydi.
- "Raqamni saqlab qolish" xizmati o'chirilganidan so'ng abonent to'lovi faqat joriy oyning oxirigacha qolgan kunlar uchun yechib olinadi va limitlar ham joriy oyning oxirigacha qolgan kunlarga mos miqdorda belgilanadi.
- Tarif rejasi shartlariga ko'ra, limitlar doirasida taqdim etilgan daqiqalar/MBlar/SMSlar axborot-ko'ngilochar xizmatlarga hamda xalqaro yo'nalishlardagi qo'ng'iroqlarga sarflanmaydi.

### 3. "Restart" xizmati shartlari

- "Restart" xizmati \*222# USSD-so'rovi yordamida faollashtiriladi. Yuridik shaxslar uchun mazkur xizmat Kompaniya nomiga yozma murojaat taqdim etish yo'li bilan yoki "Shaxsiy Kabinet" orqali ulanadi.
- "Restart" xizmatidan raqami Faol holatda bo'lgan abonentlar foydalana oladilar.
- "Restart" xizmati abonentga mustaqil tarzda tarif rejasi shartlari bo'yicha oylik abonent to'lovini faollashtirish va oylik limitlarni olish imkonini beradi.
- Xizmatga ulanish paytida abonent hisobida joriy oyning oxirigacha qolgan kunlar soniga mos holdagi abonent to'loviga yetarli miqdorda mablag' bo'lishi kerak.
- "Restart" xizmatini samarali faollashtirilganda, tarif rejasi bo'yicha abonent to'lovi faqat joriy oyning oxirigacha qolgan kunlar uchun yechib olinadi va qoldiq kunlar soniga mos miqdordagi limitlar belgilanadi.
- Postpaid tizimida tarif rejalariga ulanish va tarifni almashtirish kunida "Restart" xizmatini faollashtirib bo'lmaydi.

### 4. "Maqsad PO" tizimi tarif rejalarida Itimoiy tarmoqlar uchun taqdim etiluvchi internet-trafik shartlari:

- Tarif rejasi doirasidagi ijtimoiy tarmoqlar uchun taqdim etiluvchi internet-trafik shartlari roumingdagi abonent raqamlarga tatbiq qilinmaydi;
- Tarif bo'yicha ijtimoiy tarmoqlar uchun taqdim etiluvchi internet-trafik Facebook, Instagram, Telegram, WhatsApp va YouTube mobil ilovalarining yuklab olinishiga va yangilanishiga tatbiq qilinmaydi;
- Telegram, WhatsApp, Instagram va Facebook Messenger ilovasi orqali audio/videoqo'ng'iroq qilganda ijtimoiy tarmoqlar uchun taqdim etiluvchi internet-trafik emas, balki tarif rejasida berilgan umumiy limit yoki internet-to'plamlar doirasidagi internet-trafik sarflanadi;
- Agarda aloqa xizmatlaridan oqilona foydalanish masalasida shubhalar yoki bahsli vaziyatlar yuzaga kelsa, "COSCOM" MChJ Shartnomani bir tomonlama tartibda bekor qilish yoki Mijozning tarif rejasini almashtirish huquqiga ega.

#### **Eslatma:**

Smartfonlar, standart holatda, mobil trafikni quyidagilarga fon rejimida sarflaydi: tizim va ilovalarni yangilashga; vidjetlar (ob-havo, kalendar va boshqalar) va ijtimoiy tarmoqlar ma'lumotlarini sinxronlashga, hamda analitik-hisoblagichlarga (Google, google-analytics.com, google-tagmanager.com, gstatic.com, stats.g.doubleclick.net). Ushbu holatlarda trafik tarif rejasidagi Ucell-Internet narxiga muvofiq narxlanadi, yoki trafik barcha yo'nalishlar uchun taqdim etiladigan internet-to'plamdan sarflanadi.

Internetga kirish cheklanganida, abonent to'lov tizimlarining ilovalaridan foydalanmoqchi bo'lsa, ular offline rejimida to'g'ri ishlashi uchun smartfonda ma'lumotlar almashish rejimini o'chirib qo'yishi lozim.

#### **E'tibor qiling:**

- Tushunmovchiliklarning oldini olish maqsadida, tarif rejasi doirasidagi limitlardan foydalanishdan avval tarif rejasi doirasidagi limitlar belgilanganligini albatta oldindan tekshirib olishni so'raymiz. Daqiqalar, SMSlar va MBlar limitlari belgilanganiga qadar narxlash tarif rejasi shartlariga ko'ra limitdan tashqari ko'rsatilgan narxlarda amalga oshiriladi.
- Tarif rejasi shartlariga ko'ra taqdim etilgan daqiqalar axborot-ko'ngilochar xizmatlarga hamda xalqaro yo'nalishlardagi qo'ng'iroqlarga sarflanmaydi.
- Tarif rejalar doirasida taqdim etilgan limitlar roumingdagi abonentlar uchun amal qilmaydi.

#### **Narxlar soliqlar bilan ko'rsatilgan.**